

## SO'XLIK MUALLIMLAR RESPUBLIKA TANLOVI G'OLIBI



### SO'XLIK MUALLIMLAR RESPUBLIKA TANLOVI G'OLIBI

O'zbekiston xalq ta'limi vazirligi hamda "O'qituvchilar assotsiatsiyasi" jamoat birlashmalari hamkorligida tashkil etilayotgan "Ustoz — 2021" milliy mukofoti tanlovi Respublika bosqichida So'x tumanidagi 14-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi "Fidoiy ustoz" nominatsiyasi bo'yicha birinchi o'rinni qo'lga kiritdi va belgilangan 30 million so'm pul mukofoti, so'nggi rusumdagi qo'l telefonni hamda bir haftaga Londonga sayohat yo'llanmasi bilan taqdirlandi.

Shuningdek, mazkur nufuzli tadbirda muvaffaqiyatli qatnashgan So'xlik yosh ustoz 11-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi Mirzoyev Hamidullo Sobidjonovich "Fidoiy ustoz" nominatsiyasi yo'nalishida faxrli ikkinchi o'ringa munosib deb topildi.

Hamidullo Mirzoyevga ham tegishli diplom va 5 million so'm pul mukofoti bilan taqdim etildi.

So'x tumani hokimligi fidoiy g'olib ustozlarimizni chin dildan tabriklab, ularning kelajakdagi faoliyatida o'lkan zafarlar tilaydi.

**So'x tumani hokimligi Axborot xizmati**

2021-12-06 12:09:28